

INNOVATSION IQTISODIYOT ASOSLARI VA DAVLATNING QO'LLAB-QUVVATLASHI.

Hasanova Sayohat Baxtiyorjon qizi

Millat Umidi universiteti 2-kurs talabasi

khasanova.madish@gmail.com

Ilmiy rahbar: Umarova Mukaddas Abbasovna

Millat umidi universiteti Biznes boshqaruvi kafedrasi professori i.f.d.

Izoh (annotatsiya): *Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotning mohiyati, uning shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari yoritilgan. Globallashuv sharoitida bilimga asoslangan iqtisodiyotning ahamiyati, intellektual kapital, ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi hal qiluvchi roli tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion rivojlanish jarayonida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va davlatning qo'llab-quvvatlovchi siyosatining o'rni ochib berilgan. Maqolada O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyati va normativ-huquqiy asoslar yoritilib, innovatsiyalarni tijoratlashtirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.*

Asosiy atama va tushunchalar: *Innovatsiya, innovatsion iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, texnika, texnologiya, tahlil, sintez, tipologik yondashuv, evolyutsion yondashuv, induksiya, deduksiya, integratsiya, samaradorlik, g'oyalar, intellektual salohiyat. barqaror o'sish, axborot resurs, axborot-kommunikatsiya venchurli moliyalashtirish, loyihalash, ekspluatatsiya.*

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida jahon xo'jaligi taraqqiyotining asosiy qonuniyati innovatsion yangilanish asosida nomoddiy xo'jalik faoliyatlarining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadigan bilimlarga asoslangan yangi iqtisodiyotga o'tish hisoblanadi. Jahon xo'jaligida tez-tez ro'y berib turadigan iqtisodiy inqirozlar tufayli vujudga keladigan qiyinchiliklarga qaramasdan, ijtimoiy boylikni yaratishning ta'lim, tadqiqot va innovatsiyalarga asoslangan butunlay yangi tizimi shakllanib bormoqda.

Dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarida yalpiichki mahsuloti o'sish sur'atining 70-85 % gacha texnologiya, uskunalar, kadrlar tayyorlash, ishlab chiqarishni tashqil qilishda o'z ifodasini topgan yangi bilimlar ulushiga to'g'ri keladi. Yangi sharoitda aynan intellektual kapital qo'yilmaning asosiy qismini yaratadi, uning muhim tarkibiy qismlari ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI) ga qo'yilmalar, patent va litsenziyalar, savdo markalari, xodimlarning ilmiy bilimi va malakasi, korxona ichki madaniyati va shu kabilar, ya'ni bozor tomonidan

tan olingan va qadrlangan, ashyoviy-buyum shakliga ega bo'lmagan obyektlar hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bilimga asoslangan iqtisodiyotda, pirovard mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq mehnatning ulushi sezilarli qisqaradi. Uning pirovard qiymatida ilmiy ishlanmalar, mahsulot yoki xizmat namunasini yaratish, sinab ko'rish va bozorga taqdim etish hamda navbatdagi bosqichda uni iste'molchiga yetkazish va hayotiylik sikli davomida xizmat ko'rsatish bilan bog'liq mehnat ulushga ega bo'lib boradi. Biroq bu bosqichlarda yuqori darajadagi bilim va foydalanish intensivligi ham yuqori bo'lishini taqozo qiluvchi intellektual mehnatdan foydalaniladi. Shunday qilib, innovatsion iqtisodiyotda tadqiqot va ishlanmalar bilan bog'liq yangi bilimlarni yaratish, ularni tarqatish va amaliyotda foydalanishni tashqil qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib boradi. Bunday iqtisodiyot o'z bilimini oshirib borish va uzluksiz yangiliklarni yaratishga layoqatli yuqori malakali, ijodkor hamda tartibli xodimlarni taqozo etadi. Aynan shu sababli, O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasida inson kapitalini keng ko'lamli investitsiyalash va innovatsion iqtisodiyot talabiga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash ko'zda tutiladiki, bu milliy ta'lim tizimiga ham ancha yuqori va yangi talablarni qo'yadi. Bu ta'lim berish jarayonining barcha bo'g'inlarida o'qitishning zamonaviy va tubdan yangi usullarini qo'llash, yangi konsepsiya va modellarini ishlab chiqishni talab etadi. Respublikada innovatsion iqtisodiyot uchun innovatsion rivojlanish sohasidagi tizimli bilimlarni egallagan va texnologiyalarni tijoratlashtirishga layoqatli malakali kadrlarni tayyorlash hali yetarlicha o'z o'rniga ega emas. Bu asosan innovatsion iqtisodiyot va tadbirkorlik sohalarida mavjud taqchillik bilan bog'liqlik tufayli ham juda muhim. Shu sababli, innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlashning ta'lim dasturlari va o'quv kurslarini ishlab chiqish, innovatsiyalarni tadqiqot obyekti sifatida o'rganish va uning konsepsiyasi bayonini o'z ichiga olgan o'quv adabiyotlarini yaratish davr talabidan kelib chiqilib, juda dolzarb hisoblanadi. Innovatsion iqtisodiyotning umumiy asoslari, fanning predmeti, maqsad va vazifalari Insoniyat paydo bo'lgandan buyon ular o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ayirboshlash, shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish munosabatlari to'xtovsiz rivojlanish jarayonini boshidan kechirib kelmoqda. Ayniqsa, o'tgan asrning 80-yillaridan bu jarayon yanada shiddat bilan rivojlanib, XXI asrning dastlabki-yillaridan insonlar ko'z o'ngida texnika va texnikaviy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Buning natijasida insoniyat misli ko'rilmagan ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarga erishdi, hayot kechirish shakl va shamoyili sifat va qulaylik jihatidan keskin o'zgardi. Darhaqiqat, XXI asrda texnika va texnologiya'ning bu darajada rivojlanishining asosida insoniyatni iqtisodiy manfaatdorlikka chorlovchi va unga erishtiruvchi asosiy omillardan biri —innovatsion iqtisodiyot yotibdi. Innovatsion iqtisodiyot va innovatsion rivojlanishning mamlakat milliy iqtisodiyoti rivojiga ta'siri, kishilar ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zni xususida to'xtalishdan oldin, uning iqtisodiy mohiyati, shakllanish evolyutsiyasi va amal qilish modellariga

alohida to'xtalib o'tish lozim. Chunki, iqtisodiy adabiyotlarda va ilmiy asarlarda innovatsion iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, uning rivojlanishi va modellariga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Innovatsiya so'zi lotinchadan o'zgartirish - yoki zamona-viylashtirish degan ma'noni anglatadi. Innovatsiyada asosiy e'tibor yangilanishga qaratilgan. Bunday yangilanishlar, agar kishilar mavjud me'yor va qoidalar, standart usullardan voz kechib, butunlay yangi yondashuvlarni qo'llab olgandagina ro'y beradi. Innovatsiya ancha keng va tarkiban murakkab, mazmunini ochish uchun ko'p tomonlama yondashuvni taqozo etadigan umumiy kategoriya hisoblanadi. Bir tomondan innovatsiya o'zgarishning funksiyasini ya'ni rivojlanishini anglatadi. Shu manoda innovatsion jarayon bo'lib, har bir sohada bunday rivojlanish o'zining xususiyatlariga ega bo'ladi. Boshqa tomondan, innovatsiya bu mahsulot, pirovard natija. Innovatsiya – hayotga tatbiq etilgan va tijoriy qimmatga ega bo'lgan g'oya bo'lib, u yangi talablarni yarata oladi, mavjud talablarni samaraliroq ravishda qondiradi va sarf-xarajatlar hamda amaliyotga tatbiqi natijalarining optimal nisbatida iqtisodiy, informatsion, ekologik, ijtimoiy yoki boshqacha turdagi samara keltiradi. Innovatsion iqtisodiyot – bu tubdan o'zgartirilgan, zamona-viylashtirilgan iqtisodiyot. Uning vujudga kelishinig asosiy sababi, ishlab chiqarish texnologik usulining rivojlanishi (oddiy kooperatsiya, manifaktura, mashinalashgan ishlab chiqarish). Innovatsion rivojlanish – innovatsion omillardan foydalanish, ularni joriy etish orqali rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Innovatsion rivojlanish innovatsion iqtisodiyotni vujudga keltiradi. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyot rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar O'zbekistonda innovatsion rivojlanishning nazariyalari, shakllanishi va milliy iqtisodiyot o'sishini ta'minlashdagi imkoniyatlari xususida tadqiqot ishlarini amalga oshirishdan oldin «innovatsiya», «innovatsion iqtisodiyot» va «innovatsion rivojlanish» nazariyalarning xalqaro miqyosda o'rganish boshlangan davriga e'tibor qaratish lozim. Chunki, zamonaviy sharoitda innovatsion iqtisodiyot rivojlangan va o'zining tegishli samarasini berayotgan mamlakatlarda «innovatsion iqtisodiyot» va «innovatsion rivojlanish» emas, balki dastlab «innovatsiya»ning nazariy asoslari XX asrning birinchi yarim-yilligida fanga kirib kelgan. Bu davr 1920-1930-yillarga to'g'ri keladi, bundan ko'rinadiki xalqaro miqyosda ham innovatsiya, innovatsion iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish bilan bog'liq nazariyalarni tadqiq qilish unchalik chuqur tarixga ega emas. Bizga tarixdan ma'lumki, O'zbekiston bu davr (1920-1930-yillar)da xo'jalik yuritishning tubdan yangicha bo'lgan xususiy mulk va raqobat mexanizmlarini qat'iy ravishda inkor etadigan tizimga o'tish jarayonini boshidan kechirayotgan edi. Bundan ma'lum bo'ladiki, bu davrda O'zbekistonda «innovatsiya», «innovatsion iqtisodiyot» va «innovatsion rivojlanish»ning nazariy asoslarini tadqiq qilish emas, balki bu to'g'rida so'z yuritish ham mumkin emas edi. Demak, o'z-o'zidan ayon bo'ladiki, O'zbekistonda «innovatsiya», «innovatsion iqtisodiyot» va «innovatsion rivojlanish»ning nazariy asoslari xususida tadqiqot

ishlarini amalga oshirish, uni amaliyotga joriy etish bilan bog'liq masalalar mamlakatimizda bozor munosabatlari 1991-yillardan boshlangan. Agar, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi 10-yillik davrga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu davrda bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari va mexanizmlarini amaliyotga joriy etish, tegishli qonunchlik va me'yoriy hujjatlar bazasini yaratish bilan bog'liq ishlar amalga oshirilgan. Innovatsiya vazirligi 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi № PF-5264-son «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashqil etish to'g'risida»gi Farmoni hamda 2017-yil 30-noyabrdagi № PQ-3416-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashqil etish to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq tashqil etildi. Vazirlik o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining № PQ-3899-son «Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiya qilish tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi, № PQ-3682-son «Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, № PQ-3683-son «O'zbekiston Respublikasida urug'chilik tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, № PQ-3697-son «Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, № PQ-3698-son «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi hamda № PQ-3855-son «Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida olib boradi.

ADABIYOTLAR

1. <https://share.google/3uBZpxWcLqgNUa2xf>
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Toshkent, O'zbekiston NMIU, 2017-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining —Tovar belgilari, xizmat Ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risidagi Qonuni. —T.: 2001, 89 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5544-son 2018-yil 21-sentabrdagi —2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni Xalq so'zi. 22.09.2018 y.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3698-son 2018-yil 7-maydagi —Iqtisodiyotning soha va tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori Xalq so'zi. 08.05.2018 y.